

AMUDARYO TA'SIRIDA PAYDO BO'LGAN QADIMGI BAQTRIYA

Bekbo'tayev Behruz Asqar o'g'li

Toshkent davlat Sharqshunoslik universiteti

Tarixshunoslik, manbashunoslik va tarixiy

tadqiqot usullari 1-kurs magistranti

ORCID: 0009-0009-4835-9542

@behruzbekbutayev22@gmail.com

Anotatsiya

Mazkur maqolada Amudaryo havzasida qadimgi Baqtriya davlatchiligining shakllanishi va rivojlanish jarayoni tahlil qilinadi. Tadqiqotda tabiiy-geografik omillar, xususan Amudaryo va uning irmoqlarining hudud iqtisodiyoti, sug'orma dehqonchilik tizimi hamda voha madaniyatining shakllanishidagi o'rni ilmiy asosda yoritilgan. Irrigatsiya tizimlarining rivoji, ularning yirik siyosiy tuzilmalar davrida kengayishi hamda iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashdagi ahamiyati ochib berilgan. Natijada, Amudaryo qadimgi Baqtriya sivilizatsiyasining shakllanishi va taraqqiyotida hal qiluvchi omil ekanligi asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: Amudaryo, Baqtriya, qadimgi davlatchilik, sug'orma dehqonchilik, irrigatsiya tizimi, tabiiy-geografik omillar, arxeologik manbalar.

Annotation

This article analyzes the formation and development of ancient Bactrian statehood in the Amu Darya basin. The study highlights the role of natural-geographical factors, particularly the Amu Darya River and its tributaries, in shaping the region's economy, irrigated agriculture, and oasis culture. Furthermore, the development of irrigation systems, their expansion during the periods of large political formations, and their significance in ensuring economic stability are discussed. The article concludes that the Amu Darya played a decisive role in the formation and advancement of the ancient Bactrian civilization.

Keywords: Amu Darya, Bactria, ancient statehood, irrigated agriculture, irrigation system, natural-geographical factors, archaeological sources.

Kirish: Qadimgi davlatlar turli hududlarda va turli davrlarda shakllangan bo'lsa-da, ularning rivojlanishida ma'lum umumiy qonuniyatlar mavjud bo'lgan. Davlatlar asosan xo'jalikning ishlab chiqaruvchi sohalari – dehqonchilik va chorvachilik yaxshi rivojlangan joylarda paydo bo'lgan. Chunki odamlar doimiy yashash joyiga ega bo'lib, oziq-ovqat yetishtirish orqali barqaror hayot tarzini shakllantirgan. Bu esa aholi sonining ko'payishiga, mehnat taqsimotiga va boshqaruv tizimiga ehtiyoj paydo bo'lishiga olib kelgan. Shu sababli qadimgi davlatlar avval dehqonchilikka qulay

bo‘lgan hududlarda, masalan daryo vodiylari va unumdor yerlarda vujudga kelgan. Keyinchalik iqtisodiy faoliyatning kengayishi, savdo-sotiq va ijtimoiy munosabatlarning murakkablashishi davlat boshqaruvi, qonun-qoidalar va jamiyat tuzilmalarining shakllanishiga sabab bo‘lgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqot jarayonida tarixiylik tamoyiliga asoslanib, qadimgi Baqtriya davlatchiligining shakllanishi va rivojlanishi tahlil qilindi. Tizimli tahlil metodi yordamida Amudaryo havzasining tabiiy-geografik xususiyatlari, sug‘orma dehqonchilik tizimi va ijtimoiy-siyosiy jarayonlar o‘zaro bog‘liqlikda o‘rganildi. Shuningdek, manbashunoslik yondashuvi asosida arxeologik topilmalar, yozma manbalar va ilmiy tadqiqotlar tahlil qilindi.

Amudaryoning qadimgi Baqtriya rivojidagi o‘rni. O‘zbekistonlik taniqli arxeolog va tarixchi Yahyo G‘ulomov Amudaryoning tarixiy ahamiyatini tahlil qilar ekan, uni Nil daryosi bilan qiyoslaydi¹. Amudaryo daryosi qadimgi Baqtriya hududining iqtisodiy, siyosiy va madaniy rivojlanishida hal qiluvchi tabiiy-geografik omil bo‘lib xizmat qilgan. Daryo o‘zining tabiiy yo‘nalishi orqali hududni ikki qismga ajratgan: o‘ng qirg‘og‘ida Shimoliy Baqtriya, chap qirg‘og‘ida esa Janubiy Baqtriya joylashgan. Bu tabiiy chegaralanish hududiy tuzilma va xo‘jalik faoliyatiga sezilarli ta‘sir ko‘rsatgan. Shimoliy Baqtriya hozirgi O‘zbekistonning Surxon vohasi hamda Tojikistonning janubiy-g‘arbiy hududlarini o‘z ichiga olgan. Janubiy Baqtriya esa Afg‘onistonning shimoliy hududlari — Toxar, Qunduz, Balx, Jurjon viloyatlari, shuningdek Faryob, Samangan va Bog‘lon viloyatlarining ayrim qismlarini qamrab olgan.² Qadimgi Baqtriya davlatining markazi Baqtra shahri bo‘lib, u bugungi kunda Balx hududiga to‘g‘ri keladi.

Davlatchilikning shakllanish bosqichlari. Arxeologik va tarixiy manbalarga ko‘ra³, Baqtriya davlati⁴ uzoq davom etgan tarixiy jarayon natijasida shakllangan. Miloddan avvalgi IX–VIII asrlar hududda kichik siyosiy birliklar va harbiy-siyosiy ittifoqlarning mavjudligi bilan tavsiflanadi. Bu davr Baqtriya⁵ davlatchiligining boshlang‘ich bosqichi hisoblanadi. Mazkur davrga oid arxeologik ma‘lumotlar manzilgohlarning kichik hududlarda (odatda 2 gektargacha) joylashganini ko‘rsatadi. Ularning aksariyatida mudofaa devorlari va hunarmandchilik ishlab chiqarish izlari aniqlanmagan. Bu esa yirik va markazlashgan davlat tuzilmalarining hali shakllanmaganini, balki kichik siyosiy birliklar mavjud bo‘lganini tasdiqlaydi. Miloddan avvalgi VII–VI asrlarga kelib esa Baqtriya hududida rivojlangan

¹ Gulomov Я.Ф. Хоразмнинг суғорилиши тарихи: қадимги замонлардан ҳозиргача. – Ташкент: ЎзФААН, 1959. – Б. 19.

² Egamberdiyeva N.A. Amudaryo havzasi hududlarining qadimgi madaniyati (mil. avv. VIII – mil. IV asrlar)/monografiya/ Toshkent: “Innovatsiya-Ziyo”, 2020. – B. 9.

³ Э.В.Ртвладзе, Д.А.Лимова. Ўзбек давлатчилиги тарихи. – Тошкент: Akadempnashr, 2021. – Б. 64.

⁴ Сагдуллаев А. Қадимги урта осие тарихи (укув кулларма). - Т.: Университет, 2004. – Б. 65.

⁵ Сагдуллаев А. Қадимги Узбекистон илк ёзма манбаларда: Олий ва ўрта махсус ўқув юртлири талабалари, мактаб ўқитувчилари, манбашунослар учун қўлланма. – Т.: Ўқитувчи, 1996. – Б. 42-43.

davlat tuzilmasi shakllanadi. Bu davrda ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar murakkablashib, markazlashgan boshqaruv tizimi yuzaga keladi.

Sug'orma dehqonchilik va voha madaniyati. Qadimgi Baqtriya iqtisodiy hayotining asosini sug'orma dehqonchilik tashkil etgan. Amudaryo va uning irmoqlari — Ko'kcha, Balx, Qunduz, Kofirixon, Vaxt va Panj daryolari dehqonchilik vohalarining shakllanishida asosiy suv manbalari bo'lgan. Hududda taxminan 30 ga yaqin dehqonchilik vohalari mavjud bo'lib, ular asosan daryo vodiylari va tog' oldi hududlarda joylashgan. Ayniqsa, Amudaryoning yuqori oqimining chap qirg'og'ida joylashgan Oyxonum, Qunduz, Talikon, Xazarbag va Xvadjagar vohalari muhim dehqonchilik markazlari bo'lgan. Daryo vodiylarida sug'orish tizimlarini barpo etish nisbatan oson bo'lgan bo'lsa, tog' oldi hududlarda dalalarning suv manbaidan yuqorida joylashganligi sababli 10–15 km uzunlikdagi kanallar qurish talab etilgan. Bu esa katta mehnat va muhandislik bilimlarini talab qilib, ayrim hududlarda dehqonchilik samaradorligining pasayishiga olib kelgan.

Irrigatsiya tizimlarining rivojlanishi. Sun'iy sug'orish tizimlari qadimgi Baqtriya iqtisodiyotida muhim o'rin tutgan. Irrigatsiya inshootlarini qurish va ulardan samarali foydalanish katta miqdorda mehnat resurslari, texnik bilimlar va markazlashgan boshqaruvni talab qilgan.⁶ Shu sababli irrigatsiya tizimlari ko'pincha yirik siyosiy tuzilmalar hukmronligi davrida rivojlangan. Keyingi davrlarda Salavkiylar davlati, Yunon-Baqtriya podsholigi va Kushonlar imperiyasi hukmronligi davrida sug'orish tizimlari kengayib⁷, yanada takomillashgan. Bu esa dehqonchilik hududlarining kengayishiga, iqtisodiy barqarorlikning mustahkamlanishiga va voha madaniyatining rivojlanishiga olib kelgan. Arxeologik tadqiqotlar, xususan Oyxonum vohasida olib borilgan izlanishlar irrigatsiya tizimlarining murakkab va rivojlangan bo'lganini tasdiqlaydi. Fransuz arxeologi J.K. Gardin⁸ tomonidan olib borilgan tadqiqotlar ushbu hududda keng ko'lamlı sug'orish inshootlari mavjud bo'lganini ilmiy jihatdan asoslab bergan.

Xulosa

Qadimgi Baqtriya davlatchiligining shakllanishi va rivojlanishi ko'p omilli tarixiy jarayon bo'lib, unda tabiiy-geografik sharoitlar hal qiluvchi ahamiyat kasb etgan. Ayniqsa, Amudaryo va uning irmoqlari sug'orma dehqonchilikning rivojlanishiga, doimiy aholi manzilgohlarining shakllanishiga va iqtisodiy barqarorlikning ta'minlanishiga xizmat qilgan. Shu bilan birga, markazlashgan siyosiy boshqaruv irrigatsiya tizimlarini rivojlantirish va ulardan samarali foydalanish

⁶ Egamberdiyeva N.A. Amudaryo havzasi hududlarining qadimgi madaniyati (mil. avv. VIII – mil. IV asrlar)/monografiya/ Toshkent: "Innovatsiya-Ziyo", 2020. – B. 87.

⁷ Egamberdiyeva N.A. Amudaryo havzasi hududlarining qadimgi madaniyati (mil. avv. VIII – mil. IV asrlar)/monografiya/ Toshkent: "Innovatsiya-Ziyo", 2020. – B. 88.

⁸ Gardin J.-C., Lyonnet B. La prospection archeologique de la Bactriane orientale (1974-1978): premiers resultants. // Mesopotamia. XIII-XIV. 1978-1979. – P. 99.

imkonini yaratgan. Natijada qadimgi Baqtriya hududida yirik shahar markazlari, rivojlangan xo‘jalik tizimi va murakkab ijtimoiy-siyosiy tuzilmalar shakllangan. Demak, Amudaryo nafaqat tabiiy resurs, balki qadimgi Baqtriya sivilizatsiyasining shakllanishi va taraqqiyotida asosiy omil sifatida namoyon bo‘lgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Egamberdiyeva N.A. Amudaryo havzasi hududlarining qadimgi madaniyati (mil. avv. VIII – mil. IV asrlar)/monografiya/ Toshkent: “Innovatsiya-Ziyo”,2020.
2. Фуломов Я.Ф. Хоразмнинг суфорилиши тарихи: қадимги замонлардан ҳозиргача. – Ташкент: ЎзФАН, 1959.
3. Э.В.Ртвладзе,Д.А.Ллимова.Ўзбек давлатчилиги тарихи. – Тошкент: Akademnashr, 2021.
4. Сагдуллаев А. Қадимги урта осие тарихи (укув кулларма). - Т.: Университет, 2004.
5. Сагдуллаев А. Қадимги Узбекистон илк ёзма манбаларда: Олий ва ўрта махсус ўқув юртлари талабалари, мактаб ўқитувчилари, манбашунослар учун қўлланма. – Т.: Ўқитувчи, 1996.
6. Gardin J.C., Lyonnet B. La prospection archeologique de la Bactriane orientale (1974-1978): premiers resultants. // Mesopotamia. XIII-XIV. 1978-1979.